HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDA INVESTITSION FAOLLIKNING O'RNI VA UNI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Ismatov Fazliddin Ibodovich
Osiyo xalqaro universiteti,
Iqtisodiyot kafedrasi o`qituvchisi

ANNOTATSIYA. Ushbu tezisda hududlarning iqtisodiy rivojlanishida investitsion faollikning o'rni va uning hududiy iqtisodiy o'sishga ta'siri yoritilgan. Investitsiyalarning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish hamda hududlarning raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, hududlarda investitsion faollikka ta'sir etuvchi asosiy omillar ko'rib chiqilib, investitsiya muhitini yaxshilash, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish va investitsiyalarni istiqbolli iqtisodiy yo'nalishlarga jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mintaqa iqtisodiyoti, hududiy rivojlanish, investitsiya, investitsion faollik, investitsiya muhiti, iqtisodiy o'sish, hududiy salohiyat, raqobatbardoshlik.

ABSTRACT.This thesis examines the role of investment activity in the economic development of regions and its impact on regional economic growth. It analyzes the importance of investment in expanding production capacity, creating new jobs, developing infrastructure, and enhancing regional competitiveness. The study also considers the main factors influencing investment activity in the regions and proposes measures to improve the investment environment, ensure the efficient use of investment resources, and attract investment to promising areas of the regional economy.

Keywords: regional economy, regional development, investment, investment activity, investment environment, economic growth, regional potential, competitiveness.

KIRISH. Hozirgi sharoitda hududlarning barqaror va mutanosib iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hududlarning mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va aholi bandligini oshirish bevosita investitsion faollik darajasi bilan bog'liq. Shu jihatdan hududlarga investitsiyalarni faol jalb etish va ulardan samarali foydalanish mintaqaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Investitsiyalar hudud iqtisodiyotida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va yangi ish o'rinlarini tashkil etish uchun muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Investitsion faollikning oshishi hududda iqtisodiy faoliyatning kengayishiga, ishlab chiqarish va xizmatlar hajmining ortishiga hamda hududning investitsion jozibadorligi va raqobatbardoshligining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, hududlarning iqtisodiy salohiyati, infratuzilma bilan ta'minlanganlik darajasi, ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va investitsiya resurslarini jalb etish imkoniyatlaridagi farqlar investitsion faollikning hududlar kesimida turlicha shakllanishiga sabab bo'ladi. Hududlar kesimida investitsion jarayonlarning rivojlanish tendensiyalarini baholashda asosiy kapitalga investitsiyalarning yillik o'sish sur'ati muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich investitsiya faolligining yillar davomida qanday o'zgarayotganini aniqlash hamda hududlar o'rtasidagi farqlarni qiyosiy baholash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, ayrim hududlarda 2021–2025-yillar davomida asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1-jadval. Ayrim hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘sish sur’ati, 2021–2025-yillar (%)[1]

Hudud	2021	2022	2023	2024	2025
Buxoro viloyati	147,4	94,2	132,2	153,5	84,6
Navoiy viloyati	86,0	109,4	136,3	115,8	123,7
Qashqadaryo viloyati	77,8	80,0	117,8	156,2	108,3
Samarqand viloyati	98,7	111,6	127,8	105,5	118,6
Toshkent viloyati	120,3	110,7	121,1	139,2	95,1
Jizzax viloyati	72,4	104,6	134,1	144,4ss	104,3

Jadval ma’lumotlari 2021–2025-yillarda hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘sish sur’atlari sezilarli darajada farqlanganligini ko‘rsatadi. Xususan, Buxoro viloyatida ko‘rsatkich 2021-yildagi 147,4 foizdan 2024-yilda 153,5 foizga yetgan bo‘lsa, 2025-yilda 84,6 foizni tashkil etgan. Navoiy viloyatida esa 2022–2025-yillarda investitsiyalarning o‘sish sur’ati 100 foizdan yuqori darajada saqlangan. Qashqadaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarida ham ayrim yillarda investitsion faollikning sezilarli jadallashuvi kuzatilgan. Mazkur holat hududlarda investitsiya jarayonlarining barqarorligini ta’minlash va investitsiya resurslaridan samarali foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Investitsion faollikni oshirishning ustuvor yo‘nalishlari

Hududlarda investitsion faollikni oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiq:

Investitsiya muhitini yaxshilash – investorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish va investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonlarini soddalashtirish.

Hududiy salohiyatdan samarali foydalanish – investitsiyalarni hududlarning mavjud resurslari va iqtisodiy ixtisoslashuviga mos istiqbolli sohalarga yo‘naltirish.

Investitsiyalar samaradorligini oshirish – mablag‘larni yangi ish o‘rinlari yaratadigan, ishlab chiqarish hajmini oshiradigan va yuqori qo‘shilgan qiymat shakllantiradigan loyihalarga jalb etish.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, investitsion faollik hududlarning iqtisodiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tahlillar hududlarda investitsiyalarning o‘sish sur’atlari yillar bo‘yicha farqlanishini ko‘rsatdi. Shu sababli investitsiya muhitini yaxshilash, hududiy salohiyatdan samarali foydalanish hamda investitsiyalarni yuqori iqtisodiy samara beruvchi loyihalarga yo‘naltirish hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘sish sur’ati (yillik). Statistik ma’lumotlar, 2010–2025.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. 2023-yil 11-sentabr.
3. World Bank. World Development Indicators. Washington, D.C.: World Bank.
4. OECD. Regions and Cities at a Glance. Paris: OECD Publishing.
5. Porter, M.E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
6. Krugman, P. Geography and Trade. Cambridge, MA: MIT Press, 1991.

[1] Stat.uz malumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.